

# Yoshlarga e'tibor e'tirof etildi

// 04 July 2024 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlarga-e-tibor-e-tirof-etildi>



Yurtimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, yigit-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidor va qobiliyatini yuzaga chiqarishdagi faolligi uchun "Navoiyazot" AJ namunali tashkilot, deya e'tirof etilib, viloyat hokimligining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Joriy yilning dastlabki 6 oyi natijalariga ko'ra, viloyatdagi korxonalar va tashkilotlar orasida jamiyatda yoshlar masalasi alohida e'tiborda ekanligi, kimyogar yigit-qizlar yetakchilar safidalgiligi e'tirof etildi. Tashakkurnoma korxonalar boshqaruvi raisining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi Jasur Shamsiddinovga topshirildi.

**"NAVOIYAZOT" AJ AXBOROT XIZMATI**